IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
MAXSUS SON . VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

TIBBIYOT MUASSASALARINI MALAKALI MUTAXASSIS KADRLAR BILAN TA'MINLASH BORASIDAGI ISLOHOTLAR

Muallif	**Abduxalimov Abduraxmon Abdumo'minovich**
O'qish yoki ish joyi	**Andijon davlat tibbiyot instituti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**
Qabul qilindi	**14.09.2023**
Nashr qilindi	**22.09.2023**

Annotatsiya

Maqolada sog'liqni saqlash yo'nalishida faoliyat ko'rsatuvchi tibbiyot xodimlari, turli tor doiradagi mutaxassisllar tayyorlash va malakasini oshirish yo'lida olib borilgan islohotlar tahlil qilingan.

Аннотация

В статье анализируются реформы, проводимые на пути подготовки и повышения квалификации медицинских работников, работающих в сфере здравоохранения, специалистов различных узких кругов.

Annotation

The article analyzes the reforms carried out in the way of training and improving the qualifications of medical personnel working in the field of health care, specialists in various narrow circles.

Kalit so'zlar

Tibbiyot xodimlari, shifokorlar, hamshiralar, malaka oshirish va qayta tayyorlash.

Ключевые слова

Медицинский персонал, врачи, медсестры, повышение квалификации и переподготовка.

Keywords

Medical staff, doctors, nurses, professional development and retraining.

Kirish. Tarixdan ma'lumki, XIX asrdan boshlab sog'liqni saqlash yo'nalishida faoliyat ko'rsatuvchi tibbiyot xodimlari turli tor mutaxassisliklarga bo'lina boshladi. bu jarayon ilm-fan taraqqiy yetayotgan bugungi kunda ham davom etmoqda.

Albatta, tibbiyotning turli mutaxassisliklarga bo'linishi har bir yo'nalish bo'yicha bemorlar uchun yuqori malakali tibbiyot yordamini ko'rsatish uchun imqon iyat yaratadi. XX asrning o'rtalariga kelib umumiy amaliyot shifokori bo'lib ishlash uchun mutaxassislar tanlash bo'yicha jiddiy muammolar kelib chiqdi.

Insonlarda 10 mingdan ortiqroq kasallik turlari uchrab ular 100 mingdan ko'proq belgilar bilan namoyon bo'ladi va tashxislash uchun 400 ga yaqin turli labarator sinamalardan foydalaniladi [3:37].

Demak o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda vujudga kelgan tibbiy va iqtisodiy sabablar hamda shart-sharoitlar umumiy amaliyot shifokorlarini tayyorlashga o‘tishni taqazo qildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zbekistonda 1990 yilda 100 ming aholiga to‘g‘ri keladigan shifokorlar va o‘rta tibbiyot xodimlari sonining qisqarishi qisman mustaqillikning dastlabki yillarida tibbiyot o‘quv yurtlariga qabul sonining qisqarishiga olib keldi. Shuningdek, sog‘liqni saqlash sohasi mutaxassislarining mintaqaviy taqsimlanishida ham ba’zi nomutanosibliklar mavjud bo‘lib, ular asosan viloyat shahar markazlarida joylashib, tuman va chekka hududlarda yetishmovchiliklar vujudga kelgan. Vodiy aholisining qariyb yarmi qishloqlarda istiqomat qilishini hisobga olsak, bu nomutanosiblik aholining katta qismiga ta’sir qiladi.

Pediatr va neonatologlarning malakasini oshirish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. 1992 yilda 420 dan ortiq shifokorlar ushbu toifaga sertifikatlangan [4:84].

1995 yilda mamlakatda barcha ixtisosliklar bo‘yicha 75 ming 117 nafar shifokor, 246 ming 124 nafar o‘rta ma’lumotli tibbiyot xodimlari, 2 ming 571 nafar farmasevtlar faoliyat yuritgan. Respublikada shifokorlar soni bu davrda istiqlolning dastlabki yiliga qaraganda 106 baravar ko‘paydi. 5 ming 608 nafar oliy ma’lumotli mutaxassis, jumladan davolash ishlari bo‘yicha 2 ming 517, pediatriya bo‘yicha 2 ming 83, gigiena, sanitariya va epidemiologiya bo‘yicha 321, stomatologiya bo‘yicha 328, farmatsiya bo‘yicha 359 nafar kadrlar tayyorlandi [5:143]. Lekin aholining demografik o‘sib borishi hisobiga tibbiyot xodimlarining yetishmasligi asosiy muammo sifatida qoldi.

Maskur davrda O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligiga qarashli 47 ta o‘rta tibbiy yurtlar faoliyat ko‘rsatgan. Ularda 47 ming nafardan ortiq talabalar 8 ta mutaxassislik bo‘yicha ta’lim olgan bo‘lsa, 3 ming nafarga yaqin professor-o‘qituvchilar ta’lim berdilar. Bu davrda pedagogik kadrlar bilan ta’minlash 50-60 foizni tashkil qilib, 78 ming 200 nafar shifokor va 246 ming 579 nafar o‘rta tibbiyot xodimlari mavjud bo‘lgan [6:23]. Respublikada bu yo‘nalishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish borasida sog‘liqni saqlash sohasi bo‘yicha davlat dasturlarida hamshiralar va o‘rta tibbiy xodimlar tayyorlaydigan bilim yurtlari va qabul rejalari sonini oshirish belgilab olingan.

Bu borada oliy tibbiyot o‘quv yurtlarida tibbiy mutaxassislar tayyorlashning milliy tizimi yaratildi. Unga ko‘ra, amaliy mashg‘ulotlar uchun o‘quv vaqtini ko‘paytirish, o‘quv vaqtini deyarli 30 foizini talabalarning mustaqil ishlashlariga berish bo‘yicha taklif kiritildi. Kadrlar tayyorlashda o‘tkazilayotgan islohot ko‘p bosqichli bo‘lib, ular. I bosqich – bakalavr nomini bergan holda umumiy tibbiy ta’lim (bitiruvchi shifokor yordamchisi bo‘lib ishlashi mumkin); II bosqich – oliy o‘quv yurti bitiruvchisi (umumiy amaliyot shifokori tayyorgarligiga ega bo‘ladi); III bosqich – magistr (yuqori malakali mutaxassis shifokor) kabi darajalarni o‘z ichiga oladi [4:111].

Istiqlol yillarida mamlakatda tibbiy jihozlar bilan ta’minlanish borasidagi ishlar yildan-yilga yaxshilanib borgan bo‘lsa-da, shifokorlarning tajribasi yetishmasligi, tibbiy uskunalarning tushunmasligi kadrlar borasida islohotlar zarurligini anglatar edi. Sohada 15-20 yillab faoliyat ko‘rsatgan shifokorlarning ayrimlarida toifalari bo‘lmagan. Bu esa tizimda malakali kadrlar tayyorlash bo‘yicha yangicha yondashuv talab qilgan.

Shifokorlar malakasini oshirish va attestatsiyadan o‘tkazishda ilg‘or mamlakatlar tajribalari qo‘llanila boshlandi. Tibbiy xizmatning sinalgan usullaridan foydalanib, shifokorlar tayyorlash dasturi joriy qilindi. Har ming aholiga o‘n besh nafar shifokor, sal kam oltmish nafar o‘rta malakali xodimlarning to‘g‘ri kelganligi mamlakatda bu sohada dadil qadamlar tashlanayotganini anglatar edi. Mazkur yo‘nalishda O‘zbekiston Respublikasi prezidentining tibbiy xizmatni qishloqning o‘zida kuchaytirishga qaratilgan ko‘rsatmalari fuqarolarning uzoq yillardan beri qiynab kelgan orzularini amalga oshirdi.

1999-yilda O‘zbekiston tibbiyot ta’limi tizimiga 3 yillik oliy hamshiralik ishi dasturi kiritilib, bugungi kunga qadar tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida amalga oshirilmoqda. Hamshiralik ishi bo‘yicha bakalavriatning joriy etilishi hamshiralik ishi ta’limining ko‘p bosqichli tizimini yaratishga olib keldi, bu esa kollejlarga asosiy ta’lim berishga, oliygohlarga esa chuqurlashtirilgan ta’lim berishga imkon berdi. «Bosh hamshira» unvoni ham joriy etildi.

2010 yilda mamlakatda 12 mingdan ortiq patronaj hamshiralari, 8 mingdan ziyod pediatr, neonatolog, akusher va tibbiyot hamshirasi xotin-qizlar va bolalarga tibbiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha yangi texnologiyalar asosida ta’lim olib, o‘z malakasini oshirdi [1:66].

O‘rta bo‘g‘in tibbiyot xodimlari har uch yilda bir marta Respublika O‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini malakasini oshirish va ixtisoslashtirish markazi hamda hududiy bo‘limlarda malaka oshirish kursidan o‘tadilar. Hamshiralar assotsiatsiyasi tomonidan hamshiralar malakasini oshirish va uzluksiz ta’lim hamda qayta tayyorlash borasidagi ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, o‘rta tibbiyot ta’limi muassasalari va tibbiyot muassasalarining sifatli hamshiralik xizmati ko‘rsatish bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtiradi. 2014-yilda patronaj hamshiralarning ish faoliyatini baholash tizimi joriy etildi [7:58].

Tadqiqot metodologiyasi. Biroq, hukumat tomonidan olib borilgan islohotlarga qaramasdan, sohada ob’ektiv sabablarga ko‘ra bir qancha muammolar ham saqlanib qoldi. Jumladan, 2015 yilda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi va «Salomatlik-3» loyihasini amalga oshirish byurosi xodimlaridan iborat ishchi guruhi tomonidan ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlari, 64 ta tuman tibbiyot birlashmalari va tuman ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalarida olib borilgan tekshiruvlari natijasida mamlakatning 7 ta viloyati ayrim tumanlarnda davolash profilaktika muassasalarini malakali tibbiyot xodimlari bilan ta’mnnlashda muammolar borligi va kadrlar masalasi dolzarbligicha qolganligi ma’lum bo‘lgan [8:50].

Sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish va amalga oshirilayotgan islohotlarni yangi bosqichga ko‘tarish borasida so‘ngi yillarda ham qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi «Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4666-son qarori [2] sog‘liqni saqlash tizimini rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Unga ko‘ra, tibbiy-sanitariya xodimlarining kasbiy rivojlantirish tizimini yaxshilash, sohada yetuk va chuqur bilimga ega kadrlarni zamonaviy ta’lim standartlari asosida tayyorlash, tibbiyot tashkilotlari, ayniqsa, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarini professional mutaxassislar bilan ta’minlash, tibbiyot ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining mavqeini oshirish, 2020-2021

o‘quv yilidan boshlab mamlakatimizning barcha hududlaridan jami 47 ta tibbiyot kollejlari Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumlari etib qayta tashkil etildi.

Tahlil va natijalar. Mazkur qaror orqali sohani malakali kadrlar bilan ta’minlashda yangicha yondashuvning yana bir ahamiyatli tomoni, ushbu texnikumlarni muvaffaqiyatli bitiruvchilari tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida imtihonsiz, suhbat orqali bakalavriatning 2-kursidan o‘qishni davom ettirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. 2023-2024 o‘quv yilidan boshlab bu jarayon amaliyotga tadbiq etildi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda respublika miqyosida shifokorlar soni oshib borsada, viloyat va tumanlar kesimida ayrim ixtisosliklar bo‘yicha shifokorlarning yetishmasligi muammoligicha qolmoqda. Mamlakatda tibbiyot kadrlariga bo‘lgan ehtiyojning ortishi birinchi navbatda aholi domografik soning o‘sishi bilan izohlansa, ikkinchidan shifokor mutaxassislarning aksariyati shahar joylaridagi markazish shifoxonalarda ishlashni ma’qul ko‘rayotganligida bo‘ldi. Bu borada tibbiyot oliygohlarida tegishli hududlarda ishlash sharti bilan maqsadli tarzda qabul kvotalarining ajratilishi mavjud muammolarni bartaf etishda yordam bermoqda. Shuningdek, yangi va zamonaviy tibbiyot oliy ta’lim muassasalari tashkil etilishi, davlat va nodavlat oliygohlardagi o‘qish muddati 7 yildan 6 yilga kamaytirilishi esa tibbiyot kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarni bartaraf etilishiga yordam bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. –Toshkent: «O‘zbekiston», 2011.
2. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.04.2020 y., 07/20/4666/0402-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2021 y., 07/21/61/1195-son
3. Gadoev A. Umumiy amaliyot vrachlarini hozirgi zamon talablari asosida tayyorlash / Viloyat va tuman shifoxonalarining bosh vrachlari uchun seminar kengash materiallari. – Toshkent, 1998.
4. O‘zbekiston Respublikasi ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi, M-372-fond. 1-ro‘yxat, 164, 405-yig‘majild.
5. Fayzullaev T., Sarimsoqov A. Mustaqil O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. – Namangan, 2012.
6. Umarova T.Yu. O‘zbekiston Respublikasida hamshiralik tizimini isloh qilish yo‘nalishlari // O‘zbekiston tibbiyot jurnali. – 1998. -№1.
7. Seul Ki Choi, Bo-Eun Km, Chin-Kang Koh, Salima Kasymova. Nursing Education in the Republic of Uzbekistan. Occasional Research Paper 2020-04.
8. Djumanov S.A. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimi asosiy yo‘nalishlarining rivojlanish tarixi (1991-2015 yy). t.f.f.d. (PhD) dis... – Samarqand, 2019.